

JADID DRAMALARIDA TA'LIM ISLOHOTLARINING BADIY TALQINI

Bozorova G.R.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasiga,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadid dramalarida ilgari surilgan maktab va madrasalar islohoti, ilm-fan va dunyoviy bilimlarning ahamiyati, zamonaviy o'qituvchilik va ayollar ta'limi masalalari tahlil etilgan. Shuningdek, ushbu asarlarda o'z davrining ijtimoiy-ma'naviy muammolari fonida ta'lim islohotlariga munosabat, ularning zamonaviylikka intilishi, eskilik bilan kurash motivlari badiiy vositalar bilan ochib berilishi tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: dramatik asarlar, madrasalar islohoti, zamonaviy fanlar, o'qituvchi obrazi, ayollar ta'limi, "usuli qadim", "usuli jadid".

Kirish. Yurtimiz tarixida XIX asr oxiri va XX asr boshlari alohida ahamiyatga ega bir davr hisoblanadi. Chunki bu davrda millatimizni ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan uyg'otishga qaratilgan jadidchilik nomi ostida katta kuch harakatga keldi. Jadid bobolarimizning eng muhim g'oyasi va vazifasi qullikka mahkum bo'lgan xalqni chin ma'noda hurlikka olib chiqish, savodsizlik zulmatida qolgan avlodga ilm-ma'rifat ziyosini yetkazish edi. Buni jadidchilik harakatining buyuk namoyandasasi, ma'rifatparvar Avloniyning "qora xalqni oqartirmaq va ko'zin ochmoq chorasi" kirishilgani haqida aytgan gaplari ham tasdiqlaydi. Ta'kidlash joizki, mazkur davrda Turkiston milliy-taraqqiyatparvarlik harakati – jadidchilikning muhim markaziga aylangan edi. Jadidlar turli mamlakatlardagi taraqqiyot va islohotlar uchun olib borilgan harakatlarning tajribasini milliy asosda qayta ishlashga intildi. Mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g'oyasi juda murakkab sharoitda shakllanib yetildi.

Davrning ilg'or namoyandalari bo'lgan jadidlar ana shunday murakkab va qiyin sharoitlarda ham ezgu maqsadlaridan bir qadam ortga chekinmay ma'rifat tarqatish, ta'lim-tarbiya sohasini isloh etishga jiddu jahd qildilar. Chunki ular faqat ta'lim-tarbiya, ilm-ma'rifat bilangina ozodlikka, taraqqiyotga erishish mumkinligini yaxshi anglaganlar. Hurlikka erishmagan xalq esa taraqqiyotdan ham begona bo'ladi. "Kamolotning yagona omili o'z aqliga, o'z mulkiga, o'z mehnatiga egalikdir", – degan edi yirik jadidshunos olim Begali Qosimov "Mustaqillik o'zlikni tanimoqdir" nomli maqolasida. Ushbu ezgu maqsadlarni amalga oshirishda jadid namoyandalari drama janri imkoniyatlaridan ham mohirlik bilan foydalandi. Jadid adabiyotida dramatik asarlar muhim o'rinni egallaydi va bunday asarlar sahna uchun mo'ljallanganligi bilan

ham ahamiyatlidir. Xalqni uyg‘otish, ma’rifatli qilish uchun esa dramatik asarlar eng muhim vosita vazifasini o’tadi.

Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagি PQ-5040-son “Ma’naviy-marifiy” ishlар tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi Qarorida: “Jadid ma’rifatparvarlari g‘oyalardan yosh avlod tarbiyasida foydalanish hamda innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish” ustivor yo‘nalish etib belgilangan. Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayoni O‘zbekistonda milliy o‘quv dasturi qabul qilinishi va amaliyatga joriy qilinishini ta’lim va tarbiya uzlusizligining asosiy bo‘g‘ini sifatida qarash mumkin. Uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim va tarbiya takomillashuvi jarayoni tarixi va taraqqiyoti, o‘tmishdagi boy meroslarni targ‘ib qilish, amalda qo‘llash biz yoshlarning zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Jadidlarning ma’rifatparvarlik faoliyati haqida: “Jadidlarning g‘oyalari yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir”, – deya ta’kidlaydilar.

Muhokama. Taraqqiyotga erishuv yo‘lida bajarilishi lozim ishlarning boshida avvalambor, ta’lim masalasi turishini jadidlar alohida ta’kidlab ko‘rsatgan edilar. Bunga misol qilib 1914-yilgi jadid matbuotida chop etilgan “Taraqqiyatparvarlik” maqolasida “Har bir millatning taraqqiysi ilm, sanoat, tijorat, ziroatdan boshlanadi”, – deyilgan so‘zlarning keltirilganini aytsa bo‘ladi. Bundan shu narsa ko‘rinib turibdiki, millat taraqqiyotining shartida dastavval ilm, yani ta’lim va tarbiya ishi turganligi ta’kidlab o‘tilgan. Jadidchilik harakatida faol bo‘lgan taniqli siymolar – Ismoilbek Gaspirali, Ahmad Zaki Validiy, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Asadulla Xo‘jaev, Fayzullo Xo‘jaev, Ashurali Zohiri, Po‘lat Soliyev, Is’hoqxon Ibrat va boshqalar Vatan va xalq istiqboli yo‘lida jonkuyar bo‘ldilar. Ularning deyarli barchasi musulmonlarning sanoat, hunar, ilm va siyosatda boshqa millat vakillaridan ortda qolganliklarining muhim sababi uzlusiz zamonaviy maktablarning yo‘qligidan deb bildilar. Bu borada yana Hoji Muin Shukrulloning quyidagi misralarini keltiramiz: “Millatning taraqqiysi aning avval muntazam maktablaridan boshlanur. Zotan insonning saodati maktab tarbiyasidan vujudga kelmasmi? Til va milliy adabiyot, din va axloq talimining o‘rni maktab bo‘lganidan, hayot va saodat basharining eshigi ilgiz maktabdur”, – deb yozgandi.

Jadidchilik harakati namoyandalarining ko‘pchiligi shu davrning ko‘zga ko‘ringan ijodkorlari, shoir-u yozuvchilar edi. Ular o‘z asarlari bilan tarixan yangi milliy adabiyot yaratdilar. Adabiyot davr voqealariga hamohang bordi. 1910-illardayoq ma’rifat va ozodlik g‘oyalari uning markaziy mavzusiga aylandi. Ularning ijodida drama janri alohida ahamiyat kasb etib, xalqni uyg‘otish va ma’rifatli qilishning samarali yo‘li sifatida qaraldi. Jadidlar o‘zbek xalqi hayotiga tom ma’nodagi milliy teatrni olib kirdi.

Adabiyotshunos olim Shuhrat Rizayevning “Jadid dramasi” kitobida “Jadid dramaturglari va ilk pyesalar” degan bob bor. Ushbu bobda Sh.Rizayev bergan ma’lumotga ko‘ra, Turkistonda dramaturgiyaning shakllanishi va ilk pyesalarning yaratilishi 1911–1916-yillarga to‘g‘ri keladi. Bu yillarda Turkistonning Samarqand, Toshkent, Qo‘qon, Andijon va Buxoro shaharlarida dramaturglar yetishib chiqqan va ular ilk dramatik asarlarini yaratgan. Jumladan, Samarqandda – Mahmudxo‘ja Behbudi, Abdulla Badriy, Hoji Muin Shukrullo, Nusratulla Qudratulla; Toshkentda – Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, G‘ulom Zafariy; Qo‘qonda – Abdrauf Samadov, Shahidiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy; Andijonda – Abdulhamid Cho‘lpon, Shamsiddin Sharafiddinov, Xurshid; Buxoroda – Abdurauf Fitrat kabi dramaturglarning nomlarini qayd etadi. Sh.Rizayevning yozishiga ko‘ra, 1911–1916-yillar dramaturgiysi haqida rus sharqshunos olimi A.N.Samoylovich 1916-yilda “Драматическая литература сартов” nomli maqolasini e’lon qilgan. Ushbu maqolada Behbudiyning “Padarkush”, Nusratula Qudratullanining “To‘y”, Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”, Abdulla Badriyning “Juvonmarg”, “Ahmoq”, Xoji Muinning “Ko‘knori”, “Eski mакtab, yangi mакtab” kabi dramatik asarlari yaratilgan deb hisoblab, bu asarlarga qisqacha sharhlar yozgan.

Behbudi 1911-yilda “Padarkush” dramasini yozdi. Bu birinchi o‘zbek dramasi edi. Drama tuzilishi 3 parda, 4 manzaradan iborat. Milliy fojiaga asoslangan bu asarni dastlab nashr qilish biroz cheklanadi. Bunga esa o‘scha zamondagi davlat tuzumi sabab bo‘lgan. Asar mazmuni o‘qimagan va johil farzandning o‘z otasini o‘ldirishi haqida edi. Padarkush so‘zining ma’nosi “ota qotili” degan ma’noni beradi. Dramada Boy, uning o‘g‘li Toshmurod, yangi fikrli Domla, ruscha tahsil olgan Ziyoli, boyning mirzasi Xayrullo, boyning qotili bo‘lgan Tangriqul va boshqa obrazlar qatnashadi. Dramaturg ilgari surgan ma’rifatparvarlik g‘oyasi shu obrazlarning o‘zaro suhbatlari, bahs-munozaralari jarayonida namoyon bo‘ladi. Jumladan, asar qahramonlaridan Ziyoli obrazining quyidagi fikrlariga e’tibor qaratsak: “Hozir yangi va boshqa bir zamondir. Bu zamonga ilm va hunarsiz xalqni boyligi, yeri va asbobi kundan kun qo‘lidan ketgandek, axloq va obro‘yi ham qo‘ldan chiqar, hatto, dini ham zaif bo‘lur. Buning uchun biz musulmonlarni o‘qutmoqg‘a sa‘y qilmog‘imiz lozimdur, vaholanki, dini sharifimiz har nav naflik ilm o‘qumoqni beshikdan mozorigacha bizlarga farz qilgandir. Bu hukm — hukmi shariatdir. Biz musulmonlarga, alalxusus, bu zamonda ikki sinf ulamo kerakdur: biri olimi diniy, digari olimi zamoniy. Olimi diniy: imom, xatib, mudarris, muallim, qozi, mufti bo‘lub, xaloyiqni diniy va axloqiy va ruhoniylarini boshqarar, bu sinfga kiraturg‘on talabalar, avvalo, Turkistonda va Buxoroda ilmiy, diniy va arabiylar va bir oz ruscha o‘qub, so‘ngra Makka, Madina, Misr va Istanbulga borib, ulumi diniyani xatm qilsalar kerak, yoki komil mullo bo‘lsunlar...” Ko‘rinib turibdiki, muallif o‘zining ma’rifatparvarlik g‘oyalarini, mакtab va

muallimlar bilan bog'lik muammolar haqidagi qarashlarini badiiy qahramoni nutqi orqali ifoda etadi.

Boy obrazi orqali esa pul, mol-dunyoga ega bo'lgan, ammo farzand tarbiyasi va ilmiga e'tibor bermagan ota timsolini gavdalantiradi. Behbudiy yoshlar ta'lim olishi va kamolga yetishida ijtimoiy va oilaviy muhit alohida o'rinn tutishini "Padarkush" dramasi negiziga joylashtiradi. Unda qahramonlardan birining tilidan o'z g'oyasini: "Bizlarni xonavayron... bevatan va bandi qilg'on tarbiyasizlik va jaholatdir, bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqirlilik, zarurat va xorliqlar... hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir...", degan yo'sinda bayon qiladi.

"Teatr jadidlar nazdida, avvalo "ulug'lar maktabi", "ibratxona" bo'lib, xuddi mактаб va matbuot kabi ma'rifat, ilm olmoq g'oyasini targ'ib etishi ko'zda tutilgan edi". Bu dramalarda o'sha davrda Turkiston mintaqasidagi ijtimoiy ahvol yorqin tasvirlangan bo'lib, davriy muammolar aks etgan. Misol uchun, Abdulla Avloniyning dramalari bunga yorqin misoldir. "Advokatlik osonmi?" asarida Yevropada huquqshunoslik bo'yicha o'qigan, yangi fikrli yosh bir musulmon yigitini to'g'risida gap ketadi. Asardagi ushbu obraz Abdulla Avloniyning idealidagi obraz hisoblanadi. Yigirma to'rt yoshda bo'lgan, aholining qilgan ishlaridan, o'z haq - huquqini talab qila olmasligidan, o'zlarini tuzatib bo'lmas xatoga yo'l qo'ysalar-da, yordam berishlarini talab qilishidan aziyat chekuvchi obrazdir. Ushbu asarda Turkistondagi ayanchli voqealar tasvirlangan.

Shuningdek, Hoji Muinning "Eski maktab, yangi maktab" dramasida ham "usuli qadim" va "usuli jadid" orasidagi tafovutlar ochib berilgan. Asar qahramonlari: Mullo Ochildi, Komilboy, Domla imom kabilarning nutqlari orqali muallif eski usuldagi maktablar va yangi usuldagi maktablar orasidagi farqlar, yangi usuldagi maktablarning afzalliklarini ko'rsatib beradi va xalqning farzandlarini ushbu maktablarda o'qib tez fursatlarda savod chiqarishga, zamonaviy bilimlarni egallahsga da'vat etadi. Asarning bosh qahramonlaridan biri – Komilboyning ushbu fikrlari e'tiborlidir: "Hozirda biz, turkistoniyalar, diniy va dunyoviy ilm va hunarlardan lozimina xabardor emasmiz. Eski maktab-u madrasalarimiz bo'lsa, boyqush uyasiga o'xshash xarobalardan iboratdir. Madrasalarimizda dunyoviy ilm nari tursin, loaql diniy ilmlarning asli bo'lgan tafsir va hadis ham o'qitulmaydur. Muallim yetishdurmoq uchun dorilmualliminimiz yo'q. Hunar o'rganmoq uchun sinoatxonamiz yo'q. Zamoncha tijorat ilmini biladurgan savdogarlarimiz yo'q". Muallifning millat taqdiri borasidagi kuyunishlari ushbu parchada Komilboy nutqi orqali badiiy talqin qilinganligini ko'ramiz.

Xulosa. Jadidlar o'z asarlarida milliy taraqqiyotning iqtisodiy omillari, jamiyat ma'naviy-axloqiy poklanishida dinning o'rni, fan va texnika yutuqlarini egallah uchun maorif tizimini qayta qurish lozimligi masalalarini yoritdilar. Jamiyatning ma'naviy yuksalishi inson ijobiy fazilatlarining boyishi bilan bog'liqligi masalasini tahlil ilib, ularning uyg'unligini ta'minlash ijtimoiy hayotning boshqa unsurlariga

pozitiv ta'sirga ega degan, xulosaga keldilar. O'zlarining badiiy asarlari, roman va qissalarida, dramalari, hikoyalarida aynan mana shu masalalarni ko'tarib chiqdilar.

Jadidlar o'z asarlarida jamiyatni ma'rifat orqali isloh qilish bilan istiqlolga erishish mumkinligini e'tirof etadilar, millat o'zligini anglash uchun tarixiy xotirani shakllantirish lozim, degan fikrni ilgari surdilar, jamiyat a'zolari ilmsizligining ijtimoiy sabablarini ochishga harakat qiladilar va shu orqali barkamol avlodni tarbiyalashning obyektiv sharoitlari va subyektiv omillarini ko'rsatishni maqsad qilib qo'ydilar. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Cho'lpon kabi jadid allomalarimiz o'z badiiy olami orqali ma'rifatparvarlik g'oyalarini tarannum etdilar. Barcha kamchiliklarning, jaholatning asosida ilmsizlar yotishini qayta – qayta ta'kidlab, barchani ilm va ma'rifatga chaqirdilar va bu borada o'z qarashlarini kelajak avlod uchun dasturulamal sifatida taqdim etishdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. // “Yangi O'zbekiston” gazetasi. №165, 2021. – B12.
2. Behbudiy Mahmudxo'ja. Tanlangan asarlar. Tuzatilgan va to'ldirilgan 3-nashri. – T.: Ma'naviyat, 2006. – B. 278.
3. Boltaboyev H. Fitrat va jadidshunoslik. – T.: O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2007. – B. 283.
4. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. – T.: Universitet, 2006. – B. 125.
5. Ризаев Ш. Жадид драматурглари ва илк пьесалар. Жадид драмаси, Т.: 1997. – Б. 111.
6. Bozorova, G.R. (2022). Effective ways to teach the life and creativity of Muhammad Yusuf in school literature education. Международный журнал языка, образования, перевода, 3(2).
7. Bozorova, G., & Eshniyazova, M. Zahiriddin muhammad Bobur hayoti va ijodini o'rganishda interaktiv metodlardan foydalanish. Lteachin anguage, 156.
8. Kz Abduvahobovna. New trends and modern approaches to foreign language teaching (teaching uzbek language for russian groups). American journal of interdisciplinary research and development 16, 160-163.